



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: HOLATI, RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI VA ISLOHOTLAR SAMARASI

БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОСТОЯНИЕ,
ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ РЕФОРМ

BANKING SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CURRENT STATE,
DEVELOPMENT TRENDS, AND REFORM OUTCOMES

Jumakulov Zamir Islomovich

Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya xisobi va moliya kafedrasida dotsenti

Tursunaliyeva Kamola-talaba

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi, shakllanishi, moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan tahlili, tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o‘rni, raqamli transformatsiya, bank tizimi barqarorligini ta‘minlash choralarini va sohadagi ommaviy muammolar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, bank aktivlari, kredit portfeli, depozitlar, islohotlar, moliyaviy barqarorlik.

В статье исследованы банковская система Республики Узбекистан, этапы её формирования, анализ финансовых показателей, роль коммерческих банков в экономике, процессы цифровой трансформации, меры по обеспечению устойчивости банковской системы, а также существующие системные проблемы в данной сфере.

Ключевые слова: банковская система, банковские активы, кредитный портфель, депозиты, реформы, финансовая устойчивость.

The article examines the banking system of the Republic of Uzbekistan, the stages of its formation, an analysis based on financial indicators, the role of commercial banks in the economy, digital transformation processes, measures to ensure the stability of the banking system, as well as the existing systemic challenges in the sector.

Keywords: banking system, bank assets, loan portfolio, deposits, reforms, financial stability.

Bank tizimi — mamlakat iqtisodiyotining muhim moliyaviy instituti bo‘lib, u barqaror o‘rishni ta‘minlash, kreditlash funksiyalarini amalga oshirish, pul-kredit siyosatini tatbiq etish uchun asosiy vosita hisoblanadi. O‘zbekiston bank tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti transformatsiyasining umumiy jarayonlarini aks ettiradi: sovet davrining markazlashgan modelidan raqobat, raqamlashuv va jahon moliya bozorlariga integratsiyaga asoslangan bozor tizimiga o‘tish jarayoni amalga oshirildi. Mustaqillikning o‘ttiz yildan ortiq davri mobaynida bank sektori bir qator izchil bosqichlarni bosib o‘tdi, ularning har biri keng ko‘lamli islohotlar va tartibga solishning maqbul modelini izlash bilan belgilandi. O‘zbekistonda bank tizimi ikki pog‘onali tuzilmaga ega bo‘lib, yuqori pog‘onada Markaziy bank, quyi pog‘onada esa tijorat banklari faoliyat ko‘rsatadi.

Markaziy bank – mamlakatdagi narx darajasi, bank tizimining barqarorligi hamda to‘lov tizimining barqaror faoliyati uchun mas‘ul bo‘lgan muassasadir. Buning uchun Markaziy bank pul-kredit siyosatini olib boradi, tijorat banklar, to‘lov tashkilotlar, hamda bir necha nobank kredit tashkilotlar (MKT, lombardlar va boshqalar) faoliyatini litsenziyalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi.

O‘zbekiston Markaziy bankining huquqiy maqomi, vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, tashkil etish va faoliyat ko‘rsatish tamoyillarini belgilovchi hujjatlari bu O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi (XXV bob, 124-modda), «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun va boshqa rasmiy qonun hujjatlaridir.

Tijorat banki – korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga universal bank xizmatlari (hisob-kitob, to‘lov operatsiyalari, qo‘shilmalarni jalb etish, omonatlarni saqlash, ssudalar berish, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar) ko‘rsatadigan yirik kredit muassasasi. Tijorat banki bank harakatlarini amalga oshirish uchun pul mablag‘larini, asosan, qo‘shilmalar (omonatlar), banklararo kreditlar, o‘z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish hisobiga shakllantiradi.

O‘zbekistonda dastlabki tijorat banklari Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olganidan keyin, 19-asr oxirlarida rus kapitali ishtirokida paydo bo‘lgan va 1917-yildagi Oktyabr to‘ntarishiga qadar faoliyat ko‘rsatgan. 20-asrning 90-yillari boshidan, mustaqillikdan keyin respublikada Tijorat banklari qayta paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekiston bank sektori 30 dan ortiq bankdan iborat bo‘lib, ularning sezilarli qismi hanuz davlat ulushiga ega. Biroq xususiy va qo‘shma banklar ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. So‘nggi yillarda aktivlar, kapital va kredit portfeli barqaror o‘shish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Banklar investitsiya, lizing, faktoring va raqamli mahsulotlarni o‘z ichiga olgan xizmatlar turini faol kengaytirmoqda.

So‘nggi yillarda bank tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

- davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish;
- xususiy va xorijiy kapitalni jalb qilish;
- korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etish.

O‘zbekiston 2020 yilda bank sektorini transformatsiya qilish dasturi qabul qilinib, banklar faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etishga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat ishtirokini qisqartirish, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari ham jadal raqamlashtirilmoqda. Masofaviy xizmat ko‘rsatish, mobil ilovalar, internet-banking va fintex texnologiyalari joriy etilmoqda. Bu esa:

- bank xizmatlarining ommalashuviga,
- operatsiya xarajatlarining kamayishiga,
- mijozlarga qulaylik yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya bank tizimini modernizatsiya qilishning asosiy drayveriga aylandi. Deyarli barcha banklar mobil ilovalar, onlayn to‘lovlar va masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlarini joriy etdi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi sharoitida kontaktsiz kartalar va elektron hamyonlar ommalashdi.

Raqamlashtirishning muhim elementi — fintex sohasini rivojlantirishdir. O‘zbekistonda mobil to‘lovlar, mikromoliyalashtirish va kraudfanding sohaslarida startaplar paydo bo‘lmoqda. Banklar fintex-kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilmoqda, bu esa yangi mahsulot va xizmatlar yaratishga xizmat qilmoqda hamda aholi, jumladan qishloq hududlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirmoqda.

Fond bozorini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Savdo maydonlarini ishga tushirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlik moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, moliyalashtirish tuzilmasida fond bozorining ulushi hozircha past darajada qolmoqda va bu davlat tomonidan qo‘shimcha rag‘batlantirishni talab qiladi.

Rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri — islomiy moliya instrumentlarini joriy etishdir. Aholi orasida etik va shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirishga qiziqish ortib borayotgan sharoitda O‘zbekistonda “islomiy oyna”lar va maxsus bank mahsulotlarini yaratish uchun sharoitlar shakllantirilmoqda. Bu Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan yangi investitsiya manbalarini jalb qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston xalqaro moliya tizimiga izchil integratsiyalashmoqda. Markaziy bank International Monetary Fund, World Bank, European Bank for Reconstruction and Development va Asian Development Bank bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ushbu tashkilotlar bank sektorini modernizatsiya qilishga ko‘maklashuvchi maslahatlar, kreditlar va investitsiyalar taqdim etmoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimi juda jadal rivojlanmoqda, aktivlar, kredit portfeli va depozitlar o‘shish trendlarini namoyish etmoqda. (1-jadval)

1-jadval

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma‘lumot(mlrd.so‘m)

Kўrsatkichlar nomi	01.07.2024 й.			01.07.2025 й.			Номинал ўсиши, фоизда	Хакикий ўсиши, (девальвациян и ҳисобга олмаган ҳолда) фоизда
	жами	шундан, хорижий валютада	улуши, фоизда	жами	шундан, хорижий валютада	улуши, фоизда		
Жами активлар	690 424	296 478	43%	852 195	341 287	40%	23%	23%
Жами кредит қўйилмалари	493 952	216 728	44%	575 245	238 755	42%	16%	16%
Жами депозитлар	265 472	75 396	28%	355 621	83 992	24%	34%	34%
Жами капитал	104 158	402	0,4%	125 285	0,0	0,0%	20%	20%

Jumladan, bank sektorining aktivlari juda katta o‘shishini ko‘rsatmoqda. Masalan:

- 2024 yil 1 iyul holatiga bank aktivlari 690.4 trln so‘mga etdi, bu oldingi yilga nisbatan 15% ga ko‘pdir.

- 2025 yil 1 iyul holatiga banklar aktivlarining umumiy hajmi 852.2 trln so‘mga etdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 23% o‘shishni ko‘rsatdi.

Banklar aktivlarining o‘shishi iqtisodiyotda kreditlash faoliyatining kengayishi, depozit bazasining oshishi bilan bog‘liq. Shu jixatdan kredit portfeli ham muhim o‘shishni ko‘rsatdi. Jumladan, 2025 yil 1 iyul holatiga banklarning kredit portfeli 575.3 trln so‘mga etdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 16% o‘shishni ko‘rsatdi.

Sektorda korporativ, individual va ipoteka kreditlarining tarkibi ham diversifikatsiya qilinmoqda.

Shu bilan birga depozitlar darajasi xam oshib bormoqda. Jumladan, 2025 yil 1 iyul holatiga bank tizimidagi depozitlar 365.6 trln so‘mdan oshib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 34% o‘shishni ko‘rsatdi.

Yuqoridagilar natijasida 2025 yil 1 iyul holatiga jami kapital 125.3 trln so‘mga etdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 20% o‘shishga erishildi.

Bu ko‘rsatkichlar banklar barqarorlashuvida muhim rol o‘ynaydi va ularning aktivlar bilan bog‘liq risklarni yumshatishga xizmat qiladi.

Bank tizimi rivojida ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, qator muammolar saqlanib qolmoqda. Davlat banklarining ulushi yuqori ekanligi raqobat muhitini cheklamoqda va innovatsiyalarni joriy etishni sekinlashtirmoqda. Shuningdek, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi nisbatan pastligi bank mahsulotlaridan faol foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston bank tizimi juda jadal rivojlanmoqda, aktivlar, kredit portfeli va depozitlar o‘shish trendlarini namoyish etmoqda. Islohotlar samarasi ko‘rinib, raqamlashtirish va xususiylashtirish jarayonlari moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat

qilmoqda. Kelgusida bank tizimini xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish, risk-menejmentni takomillashtirish va xususiy sektorni jalb etish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma‘lumot*. (2024–2025). URL: cbu.uz.
2. UzDaily. *Total Assets of Uzbek Banks Reach 863 Trillion Soums, Capital Grows by 21%*. (02.10.2025).
3. UzDaily. *State-Owned Banks Maintain Dominance in Uzbekistan’s Financial Sector*. (27.10.2025).
4. Bright Uzbekistan. *Uzbekistan’s Banking Sector Sees Asset Growth*. (08.04.2024).
5. Trend.Az. *Uzbekistan Shares Loan Portfolio Volume of Banking System*. (15.02.2024).

UDK:338.436

KO‘LAM SAMARASI TURLARI, ULARNING TAVSIFI VA KO‘LAM SAMARASI ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY MODELLARI

ВИДЫ ЭФФЕКТА МАСШТАБА, ИХ ОПИСАНИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТА МАСШТАБА

THEORETICAL MODELS OF INCREASING EFFICIENCY BASED ON THE TYPES OF SCALE EFFECT, THEIR DESCRIPTION AND SCALE EFFECT

Jaksimova Zuxra Rustemovna

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko‘lam samarasi nazariyasida iqtisodchilar qarashlariga ko‘ra ikki asosiy turga ajratilgani ya‘ni ichki ko‘lam samarasi va tashqi ko‘lam samarasiga bo‘lib o‘rganish mumkinligi, ko‘lam samarasiga erish orqali yirik ishlab chiqaruvchilar xarajatlarining kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va global raqobatda ustunlikka erishish imkonini berishi haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ko‘lam samarasi, iqtisodiy o‘shish, mahsulot sifati, ichki ko‘lam samarasi, tashqi ko‘lam samarasi, iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье показано, что эффект масштаба можно разделить на два основных типа по взглядам экономистов в теории эффекта масштаба, то есть на эффект внутреннего масштаба и эффект внешнего масштаба, которые, достигая эффекта масштаба, позволяют крупным производителям снизить затраты, повысить качество продукции и получить преимущество в глобальной конкуренции.

Ключевые слова. Эффект масштаба, экономический рост, качество продукции, эффект внутреннего масштаба, эффект внешнего масштаба, экономическая эффективность.

This article highlights the fact that in the theory of scale effect, economists are divided into two main types according to their views, that is, it is possible to study the effect of internal scale and external scale, to reduce the costs of large producers by melting the scale, to increase the quality of products and achieve an advantage in global competition.

Keywords. Scope effect, economic growth, product quality, internal scope effect, external scope effect, economic efficiency.